
KATTA KO'CHA MFYDA AHOLI UCHUN MAHALLA KUTUBXONASI TASHKIL ETILDI

Toshloq tumanidagi Kattako'cha MFYdagi Tojik qishloq mahallasida foydalanilmay turgan eski noqonuniy namozxona binosida aholi va yoshlar uchun kutubxona foydalanishga topshirildi.

Aholi o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish maqsadida tashkil etilgan kutubxona ochilish marosimida tuman hokimi A.Djurabayev hamda tuman prokurori A.Xudoyberganovlar ishtirok etdi. Tuman hokimi o'z so'zida ushbu kutubxona mahalla yoshlari va keksalari uchun haqiqiy ma'naviyat o'chog'i bo'lib xizmat qilishini va ayniqsa yosh avlodning bilim maskani bo'lib xizmat qilishini aytib o'tdi.

Kutubxona O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Farg'ona viloyati boshqarmasi, viloyat "Mahalla" jamg'armasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat boshqarmalari ko'magida badiiy, siyosiy adabiyotlar, jahon tarixiga oid hamda diniy kitoblar bilan ta'minlandi.

2022-09-23 19:02:58